


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

60211600 - Xoreografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" iyun dagi 218 -sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

T/r	MUNDARIJA	bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	
	Kelishuv varag'i.....	

1. Umumiy tavsifi

60211600 - Xoreografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60211600 - Xoreografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Xoreografiya sohasidagi musiqa va san'at muassasalari va barkamol avlod maktablarida xoreografiya san'ati jamoalarini tuzish, boshqarish, xoreografiya san'ati sohasining xoreografiya jamoalari rahbari yo'nalishida, ijrochilarga klassik, milliy, xalq, folklor va zamonaviy raqlarni sahnalashtirish, o'rgatish va ularni boyitish kompleks masalalari bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi ashula va raqs ansambllari, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti va muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari, barkamol avlod maktablari, xoreografiya san'atining turli soha va tarmoqlaridagi bolalar ashula va raqs ansambllari.

"60211600 - Xoreografiya" ta'lim yo'nalishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ijodiy - tashkiliy;*
- *tashkiliy-boshqaruv*
- *ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60211600 - Xoreografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy - tadqiqot va ijodiy - tashkiliy faoliyatda:

Respublika va xorijda chop etilgan xoreografiya san'atiga oid ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

kasbiy faoliyatda xoreografiya san'ati sohasidagi maktabgacha ta'lim muassasalari, barkamol avlod maktablari, ashula va raqs ansambllarida ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish;

kasbiy faoliyatda o'tkazilayotgan tadqiqotlar asosida xoreografiya san'atini o'rganish va o'rgatishga doir yangi metodlarni tavsiya etish;

xoreografiya san'ati sohasiga doir mavjud metodikalar asosida eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

ijodiy - tashkiliy faoliyatda tadbir, konsert, bayram dasturlarini yaratish va sahnalashtirish, raqs jamoalarini (to'garaklar, studiyalar, raqs ansambllari, ashula va raqs ansambllari) tuzish va unga rahbarlik qilish;

xoreografik asarlarni (etyud, yakka va ommaviy raqs, duet) oddiy va murakkab raqs chizmalari orqali sahnalashtirish;

folklor raqslarini sahnada qayta ishlashda ijodiy analiz va sintez usullarini qo'llash;

xoreografik asar sahnalashtirishda dramaturgiya qonunlariga qat'iy rioya etish; internet tarmog'ida sohaga oid eng yangi yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadli qidirib topish hamda amalda qo'llash.

Tashkiliy-boshqaruv:

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ijodiy tomondan tashkil qila olishi;

soha ta'lim tizimiga mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va yakka mashg'ulotlarni o'tkazilishini nazorat qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalar asosida turli murakkablikdagi innovatsion xoreografik raqs harakatlarini to'g'ri o'rgatish mexanizmini ishlab chiqish;

Ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyatda:

zamonaviy davr talablariga javob beradigan konsert dasturlarini yaratish va sahnalashtirish;

xoreografik raqs jamoalarining konsert repertuarini shakllantirish prinsiplarini ishlab chiqish;

xoreografik jamoalarni (to'garaklar, studiyalar, ashula va raqs ansambllari va raqs ansambllari) tuzish va jamoani samarali boshqarish;

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, tog'ri xulosa chiqarish madaniyatini shakllantirish;

kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar va muammoli vaziyatlar yechimini topish usullarini tanlay olishda ijodiy jihatdan yondashish;

kasbiy malaka va ko'nikmani hamda shaxsiy kamolotni takomillashtirib borish; jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va ijrochilar bilan samimiy, xushmuomilalik bilan muloqot qilish;

ta'lim olgan va ta'lim berayotgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon etish ko'nikmasiga ega bo'lish;

professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish va undan amaliyotda samarali foydalanish;

kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish;

kasbga oid hujjatlar bilan ishlash;

kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish.

ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirish;

ta'lim yo'nalishlariga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish;

umumiy xoreografiya sohasidagi amaliy dasturlarni san'at va madaniyat sohasi amaliyotida qo'llash;

bilim va mahoratdan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish sifatini ta'minlash va ularni boshqarishda qo'llash;

zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo'llagan holda ijodiy ishlarni olib borish;

kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda olib borish;

xoreografiya san'ati sohasida intellektual, madaniy, ma'naviy, ijodiy, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish borasidagi bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
Majburiy fanlar					
1.01	O'YT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	D1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	O'TRT1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.04	F1304	Falsafa	120	4	3
1.05	XT13408	Xorijiy til	240	8	3-4
1.06	UPP13408	Umumiy pedagogika va psixologiya	240	8	3-4
1.07	TT15608	Teatr tarixi	240	8	5-6
1.08	JO'XST11208	Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi	240	8	1-2
1.09	MCHO'(F)11204	Musiqqa cholg'ularini o'rganish (fortepiano)	120	4	1-2
Xoreografiya (Xoreografiya jamoalari rahbari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar					
1.10	TMRO'U15608	Tarixiy-maishiy raqsini o'rganish uslubiyoti	240	8	5-6
1.11	XSRO'RU117030	Xalq sahna raqsini o'rganish uslubiyoti	900	30	1-7
1.12	O'RO'RU117030	O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti	900	30	1-7
1.13	KRO'U117030	Klassik raqsini o'rganish uslubiyoti	900	30	1-7
1.14	RKA118034	Raqs kompozitsiyasi asoslari	1020	34	1-8

2.00		Tanlov fanlar	1020	34	4-8
		<i>Tanlov fanlar</i>	1020	34	4-8
		Jami:	6540	202	
		Malakaviy amaliyot	480	16	(2,4,6,8)
		BMI	180	6	
		Jami:	660	22	
		HAMMASI	7200	240	
<i>Kvalifikatsiya Xoreografiya jamoalari rahbari</i>					
Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar					
1.10	KRA118032	Klassik raqs asoslari	960	32	1-8
1.11	XSRO'RU1160 24	Xalq sahna raqsini o'rganish uslubiyoti	720	24	1-6
1.12	O'RO'RU1380 12	O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti	360	12	3-8
1.13	EZRO'QU1180 32	Estrada va zamonaviy raqsini o'qitish uslubiyoti	960	32	1-8
1.14	XS118034	Xoreograf san'ati	1020	34	
2.00		Tanlov fanlar	960	32	5-8
		<i>Tanlov fanlar</i>	960	32	5-8
		Jami:	6540	202	
		Malakaviy amaliyot	480	16	(2,4,6,8)
		BMI	180	6	
		Jami:	660	22	
		HAMMASI	7200	240	
<i>Kvalifikatsiya Xoreografiya jamoalari rahbari (zamonaviy raqs)</i>					

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, ijodiy va ilmiy faoliyat turlari, kompetensiya, modul, profil, oliy ta'lim muassasasi, malaka talablari, o'quv fanlar bloki, asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, ta'lim jarayoni, ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish, xoreografiya, barkamol avlod muassasalari, dramaturgiya qonunlari, oddiy va murakkab raqs chizmalari, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ashula va raqs ansambllari, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, havaskorlik raqs ansambllari, mustaqil ta'lim, malakaviy amaliyot, ishlab chiqarish, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Rektor

SH.M. Toxtasimov

2024 yil "25" 06

M.O'.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor

N.B. Sayfullayev

2024 yil "25" 06

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor

D.A. R. Boltabayev

2024 yil "25" 06

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat
vazirligi

Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'limi

Bo'lim boshlig'i

O. Salixov

2024 yil "25" 06

M.O'.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
davlat akademik Katta teatri

Direktor

R. Usmanov

2024 yil "25" 06

M.O'.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Rektor

K. Urinbayev

2024 yil "25" 06

M.O'.

O'zbekiston davlat filarmoniyasi

Bosh direktor

A.Y. Iqimboyev

2024 yil "25" 06

M.O'.

Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi

Direktor

D.A. Uralov

2024 yil "25" 06